



**JADID NASRIDA BADIYLIK MASALALARI**  
**(ABDULLA QODIRIY NASRI MISOLIDA)**

*Ummatova Nigora Davron qizi*

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Filologiya va  
tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

*Tel: +998 956430018*

*E-mail: [nigoraummatova80@gmail.com](mailto:nigoraummatova80@gmail.com)*

***Annotatsiya:** Abdulla Qodiriy o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining eng yorqin namoyondalaridan biri bo‘lib, u jadidchilik g‘oyalarini adabiyot orqali xalq ongiga singdirgan ulug‘ siymolardan biridir. Ushbu maqolada Qodiriyning asarlari orqali jadidchilik harakatidagi o‘rni ularning bu g‘oyalarini qanday targ‘ib qilganliklari va jadidchilik harakatining Turkiston xalqlari uchun ahamiyati batafsil yoritiladi. Maqola davomida ularning asarlari har tamonlama tarixiy tahlil va badiiy talqin jihatdan ham yetarlicha o‘rganildi. Umuman mening fikrimcha, ushbu maqola jadid nasri adabiyotimizning badiiy nasrini yuqori bosqichga olib chiqqanini ko‘rsatib beradi va bugungi kun kitobxonlari va yosh izlanuvchilar uchun aniq va foydali manba bo‘lib xizmat qiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Abdulla Qodiriy, Jadid nasri, Jadidchilik harakati, Badiiy talqin, Tarixiy tahlil, Milliy uyg‘onish.*

***Abstract:** Abdulla Qodiri is one of the most prominent figures of the Uzbek national awakening movement and a great individual who instilled the ideas of Jadidism into the people's consciousness through literature. This article provides a detailed analysis of the role of Qodiriy and his works in the Jadid movement, how they promoted these ideas, and the significance of the Jadid movement for the peoples of Turkestan. Throughout the article, their works have been thoroughly studied from the perspectives of both historical analysis and artistic interpretation. In my opinion, this article demonstrates that Jadid prose has elevated our literature*



*to a higher level and serves as a clear and useful resource for contemporary readers and young researchers.*

**Keywords:** *Abdulla Qodiriy, Jadid prose, Jadid movement, Artistic interpretation, Historical analysis, National awakening.*

**Аннотация:** *Абдулла Кадыри является одним из самых ярких представителей узбекского национального возрождения и великой личностью, внедрившей идеи джадидизма в сознание народа через литературу. В данной статье подробно освещается роль Кадыри и его произведений в движении джадидизма, способы пропаганды этих идей и значение джадидского движения для народов Туркестана. В ходе статьи произведения автора были всесторонне изучены с точки зрения исторического анализа и художественной интерпретации. В целом, по моему мнению, данная статья демонстрирует, что джадидская проза вывела нашу литературу на высокий уровень, и служит ясным и полезным ресурсом для современных читателей и молодых исследователей.*

**Ключевые слова:** *Абдулла Кадыри, Джадидская проза, Движение джадидизма, Художественная интерпретация, Исторический анализ, Национальное возрождение.*

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida butun Turkiston o'lkasiga yoyilgan jadidchilik harakati o'zbek tili, adabiyoti va san'ati rivojlanishiga, millatning uyg'onishiga turtki bo'ldi. Jadidlar o'lka aholisini ilmli, ma'rifatli, shuningdek, hurfikrli bo'lishini istab, maktab, maorif, adabiyot va san'at sohalarida katta islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilib oldi. Xalqning madaniy va ma'rifiy jihatdan ongini o'stirishga, dunyoqarashini rivojlantirishga bor e'tiborini qaratdi. Bu borada xalq orasidan chiqqan millat ziyolilari mulkdorlar qatlamining bir qismi jadidchilik harakatining tayanchi bo'ldilar. Bular qatorida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, kabi xalqning barcha tabaqa vakillari bor edi. Jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy



taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shuningdek, XX asr boshlarida jadidchilik harakati o'zbek ta'lim tizimida katta o'zgarishlarni boshlab berdi. Jadid maktablari yangi usul asosida ta'lim-tarbiya berib, eski maktablar va madrasalardagi yodlash va tushunishga asoslanmagan ta'lim tizimidan farqli ravishda amaliy o'qitish usullariga urg'u berdi. Jadid ziyolilari mamlakat madaniy, siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan til, alifbo-imlo masalalariga jiddiy e'tibor qaratdilar. Jadid ziyolilari bu davrda o'zlarining asarlari orqali xalq tafakkurini uyg'otish va adabiy estetik muhitni yangilashga harakat qilishadi. Bu harakat adabiyotda ham yangi yo'nalishlarni ochdi: badiiy nasr janri rivojlanib, nasriy va lirik asarlar shakllandi. Cho'lpon va Abdulla Qodiriy bu jarayonning yorqin namoyandalari bo'lib, ularning asarlari o'zbek nasrida badiiylikning yangi mezonlarini belgilab berdi, jadidchilik ruhini zamonaviy yoshlar orasida yanada mustahkamladi va o'zbek adabiyotining realistik yo'nalishini rivojlantirdi.

Abdulla Qodiriy xalqining or-nomusi uchun kurashgan qadrtalab o'zbeklarning eng jasoratli va muhimi, eng iste'dodli vakilidir. Uning asarlari bir kam dunyoning ko'zlariga tik qarab yashashni o'rgatadi.[6.-B 4]

Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani xalqning ayanchli taqdiri, sobitlarga qaram bo'lib yashagan xalq haqida yaratilgan. Bu roman o'zbek xalqiga kirib kelgan birinchi romandir. Abdulla Qodiriy o'zbek ma'naviy olamiga qo'shgan hissasi hayotiy va ijodiy jasorati tufayli Mir Alisher Navoiyning xizmatlariga tenglashtirishimiz mumkin.

Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanini yozishi chog'ida shunday deydi:

"Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan erishamiz va shunga o'xshash dostonchilik, romanchilik va hikoyachiliklarda ham yangrashiga, xalqimizning shu zamonning "Tohir va Zuhra"lari, "Chor darvesh"lari, "Farhod-Shirin" va "Bahromgo'r"lari bilan tanishtirishga o'zimizda majburiyat his etamiz.



Yozmoqqa niyatlaganim ushbu “O‘tkan kunlar” yangi zamon romanchiligi bilan tanishish yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi, bir havasdir. Ma‘lumki, har bir ishning ham yangi-ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydonga chiqishi, ahllarning yetishmaklari ila sekin-sekin tuzalib, takomilga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimga jasorat etdim, havoskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho‘chib turmadim.

Moziyg‘a qaytib ish ko‘rish- xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra, mavzuni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi “xon zomonlari”dan belgiladim deydi.

“O‘tkan kunlar”ni yozar ekanman, doimo ko‘z o‘ngimda o‘quvchi ommamiz turar edi. Men bu kitobim bilan xalqimiz rag‘batini biroz bo‘lsa ham yangilikka tortmay, der edim. Shuning uchundir, hatto bir faslini tamom tashlab o‘tar ekanman “falon holni bundan so‘nggi fasllarning birida o‘qirsiz” kabi so‘z bilan o‘quvchiga ta‘minot berib qo‘yishgacha majburiyat sezar edim...” [4.-B 11,12]

“O‘tkan kunlar” romani qamrab olgan voqea-hodisalar doirasi benihoya keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirilar ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar badiiy talqin etiladi. Biroq, ular orasida vatanparvarlik millat dardi, inson qadri kabi masalalar alohida ajralib turadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli farovonligi osoyishtaligi yo‘liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar qiyofasida tasvirlanadi. “O‘tkan kunlar” bamisoli ulkan va tiniq ko‘zgu unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoit vaziyatdagi turmushi, urf-odatlarini ruhiy-ma‘naviy dunyosi bo‘y-basti qiyofasi keng ko‘lamda aniq-ravshan gavdalantiriladi. Romandagi uchlik – oshiq ma‘shuqa va ag‘yor bir qarashda an‘anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi.

Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo‘r mahorat bilan tasvir etiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebaho” – ishq-muhabbat tuyg‘usiga doir ko‘pgina tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi; Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojeaviy sahnalar kishini chuqur o‘yga toldiradi. Muallif



oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni – Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Abdulla Qodiriy Otabek bilan Kumushning ishq tarixini yozar ekan ayni damda o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir degan fikrni bag‘oyat ustalik bilan asarning mohiyatiga singdiradi... [3.- B46]

“O‘tkan kunlar”ni o‘qigan o‘quvchi haqiqatan ham go‘zal qahramonlar bilan yonma-yon yuradi, ularning g‘am-tashvishlariga sherik bo‘ladi, boshiga kulfat tushsa xafalanadi, shodligida quvonadi, ayniqsa, kitobning oxirgi epizodlaridagi fojeali manzaralarni o‘qib, yig‘laydi, ayriliqdan ko‘ngli o‘ksiydi, taqdirning imzosi qoshida lol qoladi.

Hech shubhasiz, Qodiriy romanlarini o‘qir ekanman, ijodkor yashagan davriga tushib qolgandek bo‘laman. Abdulla Qahhor Qodiriyni eslab shunday deydi: “1925-1926- yillar bo‘lsa kerak, har holda, hali Toshkentga kelmagan choqlarim edi. Shahar ziyolilari orasida “Julqunboy kelibdi” degan gap tarqaldi. Men o‘sha choqqacha Qodiriyni asarlari orqali tanir edim. Ayniqsa “O‘tgan kunlar” romani shu vaqtlarda Farg‘onada dong chiqargan, u qo‘lma-qo‘l o‘tib o‘qilar edi. Ko‘pchilikning “Bizning uyga qo‘ying”, takliflarini rad etib, u kishi, “Menga mana shu Jome masjidining bir hujrasiga joy qilib bera qolinglar” deb iltimos qildilar.

Jome bu vaqtlarda buzilib, xarob holga kelgan edi. Bir necha ustalar bir hujrani tuzatib, joy qilib berishdi. Shunisi ajabki, haligi chol ustalar savodsiz, Qodiriyning asarlarini o‘qimagan kishilar. Shunday bo‘lsa ular Qodiriyni taniydilar, ehtirom qiladilar. Ular “O‘tgan kunlarni”ni birovlariga o‘qitib tinglagan, bilgan, Qodiriyni taniganlar...

Qodiriy hujrada bir necha kun turdilar. Shunda men u kishini ikki-uch bor ko‘rdim, kuzatdim. Yodimda, bir marta ko‘rganimda u kishi xon o‘rdasini ko‘zdan kechirardi, eshik tepasiga, peshtoqlariga xat bilan bitilgan yozuvlarni o‘qib, daftarga ko‘chirib olar edilar. U vaqtlarda men Qodiriyning bu tashrifidan maqsadlarini



bilmagan edim. Keyin bildimki, o'sha tashrif "Mehrobdan chayon"ga material to'plash uchun ekan.

Bu kichik xotiradan muddaom, Qodiriyni Farg'onda naqadar hurmat qilishlarini, sevishlarini aytishdir..." [2.- B19]

Bundan shuni anglashimiz mumkinki, Qodiriy romanlari shunchaki bir asar emas, balki o'sha davrning ziddiyatlarini, xalqning dardini, hayotning mushkulotlarini ko'rsatib bergan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari Qodir bir qancha janrlarda ham ijod qilgan serqirra ijodkordir. "To'y", "Ahvolimiz", "Millatimga", "Fikr aylagil" kabi she'rlari, "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz" hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlaridir (1914–15).

"Uloqda" hikoyasi (1916), "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydir?" (1920) kabi satirik hikoyalar muallifi.

"O'tgan kunlar" (1924–26), "Mehrobdan chayon" (1929) romanlari, "Obid ketmon" (1934) qissasi yozuvchining ulkan mahoratini o'zida mujassam etgan.

Abdulla Shunosiyning "Fizika" (1928), N.V.Gogolning "Uylanish" (1935), A.P.Chexovning "Olchazor" (1936) asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qodiriy 1926-yilda "Mushtum"da bosilgan "Yig'indi gaplar" maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937-yilning 31-dekabrida esa "xalq dushmani" sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda Toshkent shahrida otib tashlangan.

Uning asarlari 1956-yildan boshlab oqlangan. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti (1991), "Mustaqillik" ordeni bilan mukofotlangan (1994). [1- B 355]

Qodiriy haqida professor Umarali Normatovning e'tirof etishicha, ulug', o'zbek yozuvchisi va uning asarlari borasida hali aytilmagan gap, yozilmagan kitob, topilmagan informatsiya to'lib-toshib yotibdi ekan: "Qodiriy merosining ko'pgina sohalari kabi yozuvchi estetik bisoti ham chuqur o'rganilgan, chinakam bahosini olgan emas" [5.-B 48].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlaymanki, Qodiriy ijodi ko'pchilikning nazarida faqat ikki roman bilangina cheklangandek tuyiladi. Aslida, yuqorida



ko'rganimizdek, uning lirikasi, hajviyoti, publisistikasi o'z tadqiqini kutib turibdi. Adibning asarlari orqali nom chiqarish uchun shunchaki yozilganmas, balki Vatan taqdirini o'zining taqdiri deb bilganlarning fidokorligi ekanligini vasiyat qiladi. Maqolani yozish davomida anglab yetdimki, Abdulla Qodiriyning asarlari bir kam dunyoning ko'ziga tik qarab yashashni o'rgatadi. Shu bois, Qodiriy asarlarini o'rganish va jadidchilik harakatining g'oyalari asosida bugungi kunda milliy taraqqiyot yo'lida harakat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola jadidchilik g'oyalarining dolzarbligi kabi masalalar chuqur o'rganishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Qodiriy. Odob axloqlari. -Toshkent nashr ,2024.-355 b.
2. Habibullo Qodiriy.Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida.T.: G'afur G'ulom nomidagi.Adabiyot va san'at nashiriyoti,1986.- 19 b.
3. Karimov B. Abdulla Qodiriy. – Toshkent nashr, 2024.- 4, 46 b
4. Karimov N. "Ijod mashaqqati". -Toshkent: O'qituvchi, 1195.-11,12 b.
5. Normatov N. "Qodiriy mo'jizasi". -Toshkent:Akademnashr, 2011.-48 b.
6. Usmon Azim "Abdulla Qodiriy". - Toshkent: Zarbarjad media, 2024.- 4 b.